

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyul

## RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi 3431,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 118,8 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiylar hajmida 34,7 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1829,5 ming.so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtida xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining tur mush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.


Viloyatda amalga oshirilgan islohotlar ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 6,1 foizga oshishiga olib keldi. 2018 yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3431,5 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylar hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (34,7 %), transport xizmatlari (26,2 %), moliyaviy xizmatlar (9,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,1 %) tashkil etadi.

## 2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar tarkibi, %



2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy xizmatlar (18,8 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (18,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (17,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (16,9 %), boshqa xizmatlar (8,6 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi etildi.

### **2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**




Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar 126,1 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar 112,3 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati 105,3 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 113,3 % va boshqa xizmatlar 109,8 % ni tashkil etgan.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari umumiylajmida eng katta ulushni oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (90,9 %) ustunlik qiladi. Yashash xizmatlari ulushi 9,1 % ni tashkil etdi.

### **2018 yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish xizmatlari tarkibi, %**



### **2018 yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**



**2018 yil yanvar-iyul oylarida viloyat bo'yicha ko'rsatilgan jami bozor xizmatlari hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	3431,5	106,1
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	208,8	116,9
Moliyaviy xizmatlar	333,1	118,8
Transport xizmatlari	899,8	103,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	844,2	101,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	151,3	104,2
Savdo xizmatlari	1190,7	102,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	100,1	105,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	109,9	118,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	63,7	100,8
Ijara xizmatlari	94,2	103,8
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	84,0	105,3
Shaxsiy xizmatlar	75,0	100,0
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	32,2	117,1
Boshqa xizmatlar	88,7	108,6

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 11,2 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxona va tashkilotlar sonidagi ulushi 65,5% ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-iyul oylarida korxona va tashkilotlar jami sonida  
xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona  
va tashkilotlarning ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), %*

